

**ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI VA
SHEKSPIRNING “ROMEO VA JULYETTA” TRAGEDIYASI QIYOSIY
TAHLILI**

Sobitova Robiyaxon Salohiddin qizi

Qo'qon davlat universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni hamda Uilyam Shekspirning Romeo and Juliet tragediyasi qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki asardagi ishq mavzusi, syujet o'xshashliklari, bosh qahramonlar xarakteri va fojeaviy yakun o'rganiladi. Shuningdek, asarlarda insoniy muhabbat, jamiyat qarashlari va ma'naviy qadriyatlarning badiiy ifodasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *qiyosiy adabiyotshunoslik, ishq, fojea, doston, tragediya, Layli va Majnun, Romeo va Julietta, syujet, muhabbat.*

Jahon adabiyotida ishq-muhabbat mavzusi eng qadimiy va abadiy mavzulardan biri hisoblanadi. Turli xalqlar adabiyotida chin muhabbat, visolga erisha olmagan oshiq-ma'shuqlar taqdiri haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Sharq adabiyotida Alisher Navoiyning Layli va Majnun dostoni, G'arb adabiyotida esa Uilyam Shekspirning Romeo and Juliet tragediyasi ana shunday mashhur asarlar sirasiga kiradi.

“Ishq buyuk Navoiy talqinida hayot va koinot yaratilishining maqsadi sifatida qo'yilarkan, xuddi shu nuqtada u buyuk Dante va Shekspir bilan mushtaraklikka erishadi. Dante, Navoiy va Shekspirning yuksak badiiy tafakkurlari – fazodagi uchrashuv ana shu tarzda voqe bo'ladi”.

Nazar Eshonqul⁴⁰

Mazkur asarlar turli davr va muhitda yaratilgan bo'lsa-da, ular o'rtasida bir qator syujet va g'oyaviy o'xshashliklar mavjud. Har ikki asarda ham sof muhabbat yo'lida kurashgan yoshlarning fojeali taqdiri tasvirlanadi. Muhabbat yo'lidagi to'siqlar, jamiyat qarashlari va oilaviy nizolar asar qahramonlarini halokat sari olib boradi. Qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, bu ikki asar Sharq va G'arb adabiyotidagi muhabbat talqinining o'ziga xos jihatlarini ochib beradi.

“Layli va Majnun” ham, “Romeo va Juliet” ham fojeaviy ishq qissasiga asoslangan. “Layli va Majnun” dostonida Qays va Layli bir-birini chin dildan sevadi. Ammo ularning sevgisiga ota-onalar va jamiyat qarshi chiqadi. Qays “Majnun” nomi bilan saholarda kezishga majbur bo'ladi. Oxir-oqibat, oshiq-ma'shuqlar visolga erisha olmaydi va fojeali tarzda halok bo'ladi.

“Romeo va Juliet” tragediyasida ham Romeo va Julietta bir-birini sevadi, biroq ularning oilalari — Montekki va Kapuletti urug'lari o'rtasidagi adovat yoshlarning

⁴⁰ <https://share.google/MFCKqlc3s1G4AmtJc>

baxtiga to'sqinlik qiladi. Ular yashirin nikoh qurishga majbur bo'ladi. Voqealar rivoji davomida tushunmovchilik va oilaviy ziddiyatlar sabab Romeo ham, Julietta ham halok bo'ladi.

Demak, har ikki asarning asosiy syujeti chin muhabbat, muhabbat yo'lidagi to'siqlar, jamiyat va oilaning qarshiligi, fojeaviy yakun asosida qurilgan. Bu jihatlar ikki asarni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Asarlardagi bosh qahramonlar ham ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin obrazlardir. Qays — nihoyatda sadoqatli va samimiy oshiq. U Layliga bo'lgan muhabbati sabab dunyoviy hayotdan voz kechadi. Uning uchun muhabbat hayotning yagona ma'nosiga aylanadi. Majnun obrazi Sharq adabiyotida ilohiy va pok muhabbat timsoli sifatida gavdalanadi. Romeo ham xuddi shunday sadoqatli oshiq sifatida tasvirlanadi. U Julietta uchun oilasi bilan qarama-qarshilikka boradi, hatto hayotini xavf ostiga qo'yadi. Romeo sevgini hayotdan ustun qo'yadi. Layli va Julietta obrazlari ham o'z sevgisiga sodiq qizlar sifatida tasvirlangan. Har ikki qahramon jamiyat bosimiga qaramay, sevgan insonidan voz kechmaydi.

Har ikki asarda muhabbat yuksak tuyg'u sifatida ulug'lanadi. Biroq Sharq va G'arb adabiy tafakkuri sabab muhabbat talqinida ayrim farqlar ham kuzatiladi. Alisher Navoiyning talqinida muhabbat ilohiy va ma'naviy mohiyat kasb etadi. Majnun sevgisi orqali ruhiy kamolotga erishadi. U sahroda yashab, dunyo hayotidan voz kechadi. Uilyam Shekspir tragediyasida esa muhabbat ko'proq insoniy hissiyot va hayotiy fojea sifatida tasvirlanadi. Romeo va Julietta sevgisi real hayotdagi oilaviy nizolar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Shunday bo'lsa-da, har ikki asarda ham muhabbat inson uchun eng oliy qadriyat sifatida ko'rsatiladi. Har ikki asarda jamiyat qarashlari va insonlar o'rtasidagi nizolar asosiy fojea sabablaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

“Layli va Majnun”da ota-onalarning rozilik bermasligi, urf-odat va an'analar, jamiyat bosimi oshqlarning visoliga to'sqinlik qiladi. “Romeo va Julietta”da esa oilalar o'rtasidagi adovat, ijtimoiy qarama-qarshilik, tushunmovchiliklar qahramonlarni halokatga olib keladi. Demak, har ikki asarda ham muhabbat ziddiyatlar bilan to'qnashadi.

Har ikki asarning yakuni fojea bilan tugaydi. Bu fojea orqali mualliflar muhabbatning qanchalik buyuk va yengilmas kuch ekanini ko'rsatadi. “Layli va Majnun”da Laylining vafoti Majnunni chuqur iztirobga soladi va u ham sevgilisi qabri yonida jon beradi. “Romeo va Juliet” tragediyasida esa Romeo Juliettani o'ldi deb o'ylab zahar ichadi. Julietta esa Romeoning o'lganini ko'rib o'z joniga qasd qiladi. Fojeaviy yakun har ikki asarda muhabbatning pokligi, insoniy tuyg'ularning kuchi, jamiyatdagi ziddiyatlarning ayanchli oqibatini yorqin namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning Layli va Majnun dostoni hamda Uilyam Shekspirning “Romeo va Juliet” tragediyasi jahon adabiyotidagi eng mashhur muhabbat asarlaridan hisoblanadi. Ammo asarlarni g'oyaviy jihatdan bir xil deb bo'lmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Navoiy Ilohiy ishqni o'z dostonida kuylasa,

Shekspir avom ishqini ko'rsatib beradi. Bu ikki asarni syujet o'xshashliklari asosida tahlilga tortish maqsadga muvofiqdir. Har ikki asarda chin muhabbat, sevgiga qarshi to'siqlar, jamiyat bosimi, fojeaviy yakun kabi umumiy syujet chiziqlari mavjud. Biroq Sharq va G'arb adabiy tafakkuri sabab muhabbat talqinida ayrim farqlar kuzatiladi. Navoiy muhabbatni ilohiy va ma'naviy kamolot darajasida tasvirlasa, Shekspir uni hayotiy fojea va insoniy hissiyotlar orqali ochib beradi. Shunday bo'lsa-da, har ikki asar ham inson qalbidagi sof muhabbatning abadiyligini ulug'lovchi buyuk badiiy meros sifatida jahon adabiyotida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" doston, Toshkent-1992.
2. Shekspir "Romeo va Julyetta" tragediya, Toshkent-1981.
3. X.Mamatqulova "Navoiyning «Layli va Majnun», Shekspirning «Romeo va Juletta» asarlarining qiyosiy tadqiqi" tadqiqoti. Samarqand-2010.
4. <https://t.me/c/2477583362/523>